“BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI”

Kamolova Mashhura Otabek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, nazariy va amaliy asoslari tadqiq qilinadi. Tezisda yangi texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy madaniyat va muloqot qobiliyatini shakllantirish uchun samarali hisoblangan metodlar orqali tahlil qilishdan iboratdir. Til kompetentligi lingvistik bilimlar, kommunikativ ko‘nikma va malakalar hamda pedagogik faoliyatda ishlatiladigan qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan ta’limiy tuzilma sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar

Lingvistik kompetentlik, kommunikativ qobiliyat, pedagogik texnologiyalar, bo‘lajak o‘qituvchilar, interaktiv metodlar, til ko‘nikmalari

Аннотация

В данной статье исследуются современные педагогические технологии развития лингвистической компетентности будущих учителей, а также раскрываются их теоретико-методологические и практические основы. В работе проводится анализ эффективных методов формирования речевой культуры и коммуникативных умений будущих педагогов на основе инновационных образовательных технологий. Лингвистическая компетентность рассматривается как интегративная

образовательная категория, включающая совокупность лингвистических знаний, коммуникативных навыков и умений, а также профессионально значимых способностей, реализуемых в педагогической деятельности.

Ключевые слова

Лингвистическая компетентность, коммуникативные умения педагогические технологии, будущие учителя, интерактивные методы, языковые навыки.

Abstract

This paper explores modern pedagogical technological for developing the linguistic competence of future teachers, along with their theoretical, methodological and practical foundations. The study analyzes effective methods for fostering speech culture and communicative skills of prospective teachers through the application of innovative educational technologies. Particular emphasis is placed on substantiating the significance of the competence – based approach in the system of professional teacher training. Linguistic competence is conceptualized as an integrative educational construct encompassing linguistic knowledge, communicative skills and abilities, as well as professionally relevant competencies applied in pedagogical practice.

Keywords:

Linguistic competence, communicative skills, pedagogical technologies, future teachers, interactive methods, language skills

Kirish

Hozirgi zamonaviy va globallashuv sharoitida ta‘lim tizimi uchun asosiy talablardan biri – yuqori malakali, lingvistik kompetentlikka ega pedagogik kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyati, til boyligi va kommunikativ qobiliyati

uning kasbiy faoliyat samadorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Ta’lim makonida til faqat o‘quv predmeti emas, balki, ta’lim, tarbiya va shaxs ijtimoiylashuvida asosiy vosita hisoblanadi. Bu o‘qituvchining til va ijtimoiy kompetentligiga bo‘lgan talablarni oshiradi.

Ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning turli pedagogik vaziyatlarda samarali foydalanish, o‘qituvchilarning nutq faoliyati boshqarish va ularning kommunikativ rivojlanishi uchun sharoit yaratish qobiliyati nazarda tutadi. Talabalar nutqini ravon qilish, faollashtirish uchun turli interaktiv ta;lim texnologiyalaridan foydalanish juda samarali hisoblanadi. Bu haqida ,ya’ni interaktib o‘yinlar haqida shunday fikrlar bildirilgan: “Interaktiv aktivlar o‘yinlar talabalarni faol nutq faoliyatiga jalb etadi, dialogik va monologik nutq ko‘nikmalarini shakllantiradi, o‘z pozitsiyasini asoslash va suhbatdoshning nutqini adekvat qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘yin shaklidagi ta’lim jamoada ishlash, ijtimoiy rollarni qabul qilish, va birgalikdagi faoliyat natijalari uchun mas’uliyatni his etish orqali ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi”. [1]

Lingvistik kompetentlik tushunchasi ilk bor Noam Chomsky [2] tomonidan fanga kiritilgan. U kompetentsiya va performansni farqlab, til bilimining ichki tizmini aniqlab bergan. Bu tushuncha til o‘rganish va o‘qitish jarayonining asosiy kompenenti bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni,balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli uni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi:

Lingvistik kompetentlik masalasi tilshunoslik va pedagogika sohasida keng o‘rganilgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Noam Chomsky fikriga ko‘ra, inson tilni grammatik jihardan to‘g‘ri biladi, bu bilim uning ongida shakllanadi va nutq jarayonida namoyon

[1] M.M.Ergashov. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda interaktiv o‘yinlar orqali til va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirish” – development os science journal. 2025 dekabr /12
[2] Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA:MIT Press.

bo‘ladi. Keyinchalik, Dell Hymes [3] tomonidan ushbu yondashuv kengaytirilib, kommunikativ kompetentsiya tushunchasi kiritildi. Hymes tilni nafaqat Grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash, balki uni ijtimoiy kontekstda ham mos ravishda ishlatish zarurligini ta’kidlagan.

Kommunikativ kompetentsiya modeli Michael Canale va Merrill Swain [4] tomonidan yanada rivojlantirilib, u to‘rtta asosiy komponentga ajratildi: Grammatik, sotsiolingvistik, diskurs va strategic kompetentsiyalar.

Zamonaviy tadqiqotlarda Lyle Bachman [5] til kompetentsiyasini tizimli yndashuv asosida tahlil qilib, til qobiliyati va strategik kompetentsiyani ajratib ko‘rsatadi.

Psixolingvistik yondashuvda Lev Vygotsky [6] til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab bergan. Unga ko‘ra, til rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Aleksey Leontiev [7] esa nutq faoliyati nazariyasini ishlab chiqib, tilni faoliyat sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham lingvistik kompetentlik masalasi o‘rganilgan. Xususan, Nizomiddin Mahmudov [8] va Shavkat Rahmatullayev [9] o‘z ishlarida til madaniyati, nutq me’yorlari va leksik tizim orqali lingvistik kompetentlikni rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratganlar.

Shuningdek, Irina Zimnyaya [10]kompetentdiya va kompetentlik tushunchalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etib, ularni zamonaviy pedagogik yondashuv zarurligini asoslab bergan.

[3] Hymes.D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds)
[4] Michael Canale & Swain.m. (1980). Theoretical n=bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied linguistics, 1(1), 1 – 47.
[5] Bachman, L.F.(1990). Fundamental considerations in language testing. Oxford:Oxford University press.
[6] Vygotsky,L.S.(1978). Mind in society: the development of higher psychological Processes. Cambridge, MA: Harvad University Press.
[7] Leontiev, A.N. (1981). Problems of the Development of the mind. Moscow: Progress.
[8] Zimnyaya.I.A (2003). Key competences as a new paradigm of educational result. Moscow.
[9] Mahmudov, N. (2012). O‘zbek tilida nutq madaniyati. Toshkent.
[10] Rahmatullayev. Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili, lingvistik kompetentlik zamonaviy ta’lim tizimining muhim komponenti bo‘lib, uni rivojlantirishda kommunikativ, kompetentsiyaviy yondashuvlar yetakchi o‘rin tutadi.

Asosiy qism:

Bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari tizimli va integrativ yondashuvni talab qiladi. Ushbu yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo‘llay olish shakllanadi. Natijada, o‘rganilayotgan til faqat nazariy bilim emas, balki, ijtimoiy muloqot vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Lingvistik kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, “brainstorming”, “role – play”, “case – study” kabi metodlar mustaqil fikrlashga katta yordam beradi, nutqiy faoliyatni rag‘batlantiradi.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi lingvistik kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Elektron platformalar, mobil ilovalar va masofaviy ta’lim tizimlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur tadqiqotning normativ – huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 4947 – son Farmon, PF – 5847 – son Farmon hamda PQ – 5117 – son Qaror kabi hujjatlari tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy lingvistik kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shuningdek, lingvistik kompetentlikni shakllantirishda integrative yondashuv muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish boshqa fanlar – pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liqdir.

Bundan tashqari, refleksiv yondashuv ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u orqali talabalar

o‘z nutqiy faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Lingvistik kompetentlik bir nechta komponentlarsan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: fonetik kompetentsiya, leksik kompetentsiya, grammatik kompetentsiya, sotsiolingvistik kompetentsiya. Ushbu komponentlarni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Lingvistik kompetentlikni rivojlantirishda o‘qituvchining roli ham juda muhim. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki, yo‘naltiruvchi va motivator sifatida faoliyat yuritishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiylarni bilishi va ularni dars jarayonida samarali qo‘llay olishi zarur.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar integratsiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa:

Bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Lingvistik kompetentlik nafaqat tilning grammatik qoidalarini bilish, balki, uni real kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri va samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish, ta’lim sifatini oshirish hamda zamonaviy talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish kompleks va uzluksiz jarayon bo‘lib, u zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi lozim.

Lingvistik kompetentligini rivojlantirish kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.M.Ergashov. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda interaktiv o‘yinlar orqali til va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirish” – development os science journal. 2025 dekabr /12
2. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA:MIT Press.
3. Hymes.D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds)
4. Michael Canale & Swain.m. (1980). Theoretical n=bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied linguistics, 1(1), 1 – 47.
5. Bachman, L.F.(1990). Fundamental considerations in language testing. Oxford:Oxford University press.
6. Vygotsky,L.S.(1978). Mind in society: the development of higher psychological Processes. Cambridge, MA: Harvad University Press.
7. Leontiev, A.N. (1981). Problems of the Development of the mind. Moscow: Progress.
8. Zimnyaya.I.A (2003). Key competences as a new paradigm of educational result. Moscow.
9. Mahmudov, N. (2012). O‘zbek tilida nutq madaniyati. Toshkent.
10. Rahmatullayev. Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.
11. PF – 4947 – son Farmon. Toshkent. 2017.
12. PF – 5847 – son Farmon. Toshkent. 2019.
13. PQ – 5117 – Qaror. Toshkent. 2021.
14. PF – 60 – son Farmon. Toshkent. 2022.